ZAMONAVIY LINGVISTIK TAHLIL USULLARI

Xamidova Nodira Sattorovna
Termiz davlat pedagogika instituti
Tillar fakulteti o'zbek tili va adabiyoti
kafedrasi o'qituvchisi
Omonova Gulsoat Panji qizi va
Turdiboyeva O'g'iloy Abdulla qizi
Termiz davlat pedagogika insituti
Tillar fakulteti 2-bosqich 24.01-guruh talabalari

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy lingvistik tahlil usullarining bugungi kundagi tutgan o'rni va ahamiyati haqida fikr yuritiladi hamda zamonaviy tilshunoslikda rivojlangan asosiy yo'nalishlari tahlil qilinadi. Maqola tilshunoslik fanining fanlararo xususiyat kasb etayotganini yoritishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: zamonaviy lingvistika, sotsiolingvistika, psixolingvistika, pragmalingvistika, kognitiv yondashuv, intralingvistika, statik lingvistika, neologizm, dinamik lingvistika, dialektologiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются роль и значение современных методов лингвистического анализа в современном мире, а также анализируются основные направления, развивающиеся в современной лингвистике. Статья также служит раскрытию междисциплинарного характера лингвистики как науки.

Ключевые слова: современная лингвистика, социолингвистика, психолингвистика, прагмалингвистика, когнитивный подход, интралингвистика, статическая лингвистика, неологизм, динамическая лингвистика, диалектология.

Abstract: This article discusses the role and significance of modern methods of linguistic analysis in today's world and analyzes the main directions that have developed in modern linguistics. The article also serves to highlight the interdisciplinary nature of linguistics as a field of study.

Keywords: modern linguistics, sociolinguistics, psycholinguistics, pragmalinguistics, cognitive approach, intralinguistics, static linguistics, neologism, dynamic linguistics, dialectology.

Lingvistika alohida mustaqil fan sifatida 1816-yilda fanlar olamiga kirib keldi. Lingvistika terminining asosi lotincha "lingue" ya'ni "til" so'zidan kelib chiqqan bo‘lib, tilshunoslik demakdir.

Tilshunoslik bugungi kunda murakkab, ko‘p qatlamli tizim sifatida o'rganilmoqda. Endilikda til nafaqat strukturaviy birliklar yig'indisi, balki, tafakkur madaniyat, ijtimoiy va psixologik omillar bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida tahlil qilinmoqda. Lingvistika yoki tilshunoslik tillarni o‘rganuvchi fan bo‘lib, tilning ijtimoiy tabiati , vazifasi, ichki tuzilishi, tasnifi, muayyan bir tilning amal qilish qonunlari hamda tarixiy taraqqiyotini o‘rganadi. Lingvistika o‘ziga xos murakkab ijtimoiy hodisa bo‘lgan aloqa quroli - tilni bir butun ob'ekt sifatida o‘rganadi va tahlil qiladi. Lingvistika nihoyatda qudratli ma'naviyat belgisi hamda jamiyat va millat boyligi bo‘lgan tilni o‘rganish mobaynida quyidagi ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Dinamik lingvistika - tilni doimiy rivojlanishda va o‘zgarishda bo‘lgan ijtimoiy hodisa sifatida o'rganadigan lingvistik yo'nalish hisoblanadi. Bu yondashuv tilga vaqt mobaynida shakllanayotgan, yangilanayotgan va moslashayotgan tirik tizim sifatida qaraydi. Bu usulning asosiy maqsadi til tizimidagi o'zgarishlarni, sabablarini va oqibatlarini real va tarixiy zaminda aniqlashdir.

Til asosan quyidagi yo‘llar bilan yangilanib boyib boradi . Bu esa dinamik lingvistikaning tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. O‘zbek tiliga neologizmlarning ya'ni , yangi so‘zlarning kirib kelishi. Bunga misol qilib "skrinshot" "kontent" " bloger" kabi so‘zlarni kiritishimiz mumkin. Bu so‘zlar 20yil oldin mavjud bo'lmagan. Bu leksik dinamikani ko‘ratadi.

Tilning internet orqali yangilanishi - zamonaviy dinamik lingvistika va internet tilshunosligi doirasida o'rganiladigan muhim hodisa bo‘lib, internet va onlayn madaniyat orqali kirib kelayotgan yangi so‘zlar, iboralar va uslubiy o'zgarishlarni o‘z ichiga oladi. Bunga misol qilib "like bosmoq" " skachat qilmoq" kabi so‘zlarni kiritishimiz mumkin.

Dialektal leksikadagi dinamik o'zgarishlar- bu shevaga oid so‘z va iboralarning yangi shakllarda paydo bo‘lishi va adabiy til doirasiga kirib borishi demakdir. Bunga misol qilib "oshna" so‘zini olsak , Toshkent shevasi bo‘lishiga qaramay , hozir ko‘plab ommaviy axborot vositalarida ham ishlatilmoqda.

Grammatik innovatsiyalar- bu so‘z yasashda yangi shakllarning paydo bo'lishi demakdir. Bunga misol qilib "gapiruvchan" va "yozuvchan" so‘zlarini keltirsak, harakat bildiruvchi fe'ldan sifat yasash orqali yangi grammatik birlik vujudga kelmoqda.

Shunday qilib, dinamik lingvistika tildagi har qanday yangilanish va o'zgarishlarni ilmiy asosda o‘rganadi va tahlil qiladi.

Statik lingvistika- bu tilni ma'lum bir vaqt oralig'ida o‘rganuvchi lingvistik yondashuv hisoblanadi. U til tizimini o'zgarishsiz va barqaror holatda tahlil qiluvchi lingvistik tahlil usulidir.

Statik lingvistikaga asos solgan tilshunoslardan eng mashhuri bu -Ferdinand de Sossyur hisoblanadi.

Quyidagilar statik lingvistikaning o‘rganish ob'ektlaridir:

Biror tilning hozirgi grammatik qoidalari

Ma'lum bir tilning so‘z boyligi

Tovush tizimi kabilarni o‘rganadi.

Statik lingvistika tilning ayni paytdagi qoidalari va tizimini o‘rganib, tilni tushinishga va uni aniq ifodalashga yordam beradi.

Intralingvistika- tilshunoslikning til ichidagi strukturaviy va elementlarini o‘rganuvchi sohasi. Bu yondashuv til ichidagi ichki tizimlarni, so‘z, morfema, gap, fonema kabi birliklarning o‘zaro bog'liqligini tahlil qilishga yo'naltirilgan.

" Intralingvistika " so‘zi lotin tilidan olingan bo‘lib, "intra" ichida, " lingvistika " tilshunoslik degan ma'noni bildiradi. Ya'ni , intralingvistika- til ichidagi jarayon va tizimlarni o‘rganadi. Bu yondashuv tilning ichki tizimini chuqur anglash uchun zarurdir.

Zamonaviy lingvistika va til texnologiyalarida intralingvistika yondashuvi muhim o‘rin tutadi.

Ekstralingvistika - bu tilshunoslikning tashqi, ya'ni tilni o'rab turgan ijtimoiy, madaniy, psixologik hamda tarixiy omillar bilan bog'lagan holda tahlil etuvchi sohadir.

Ekstralingvistika intralingvistikadan farqli lotincha "extra" - tashqarida , ortiqcha, chetda va "lingue" - til so‘zlaridan tashkil topib, tilning tashqi omillari demakdir.

Bu yondashuv til o'zgarishining sabablarini aniqlash bilan birga, dialektologiya, sotsiolingvistika va pragmalingvistika kabi yo‘nalishlar uchun ilmiy asos yaratib beradi.

Zamonaviy tilshunoslikda ekstralingvistik yondashuv til va jamiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishda , til o'zgarishlarini tushinishda va til siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Paralingvistika- bu og'zaki nutq jarayonida til vositalaridan tashqari , lekin nutqqa hamroh bo'luvchi ifoda vositalarini o'rganadigan tilshunoslik sohasi. Ya'ni bu soha so‘zlarning o‘zi emas, balki ularning qanday aytilayotganini o‘rganadi.

Paralingvistik vositalarni o‘z o‘rnida ikki guruhga ajratib o'rganishimiz mumkin:

a) Tovushli paralingvistik vositalar : intonatsiya , pauza , tovush tezligi , tovush balandligi , tembr

b) Tovushsiz paralingvistik vositalar : mimika , gestikulyatsiya (qo‘l harakati), tana holati , ko‘z qarashi.

Bu vositalar yordamida so‘zlovchi o‘z his- tuyg‘ularini , munosabatini va niyatlarini so‘zsiz ham yetkazishi mumkin. Shuning uchun paralingvistik vositalar muloqotning ajralmas qismi hisoblanadi.

Psixolingvistika - bu til va tafakkur o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganuvchi fan bo‘lib, inson til bilan qanday fikrlashi , his qilishi , so‘zlashishi va eslab qolishini o‘rganadi.

Psixolingvistika til bilan bog'liq ruhiy jarayonlarini o‘rganar ekan asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

Tilni idrok etish (persepsiya) jarayonini o‘rganish

Nutq ishlab chiqarish (produksiya) mexanizmlarini tahlil qilish

Til o'zlashtirish, xususan, bola tilining rivojlanishini o‘rganish

Til buzilishlarini (afaziya , disleksiya va boshqalar) tahlil qilish

Zamonaviy texnologik taraqqiyot psixolingvistika oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda va bu yo‘nalishdagi izlanishlar hali davom etadi.

Sotsiolingvistika - tilshunoslikning bir sohasi bo‘lib , til va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganadi. Bu yondashuv insonlar qanday qilib ijtimoiy

muhitga qarab turlicha gapirishlarini, turli ijtimoiy guruhlarda til qanday farqlanishini , tildagi ijtimoiy tengsizlik, dialektlar, urf - odatlar va madaniy ta'sirlar qanday aks etishini tahlil qiladi.

Zamonaviy dunyoda bu fan madaniyatlararo muloqotda va bir qancha masalalarni tushinishda juda muhim ahamiyatga ega.

Pragmalingvistika- bu tilshunoslikning bir sohasi bo‘lib, til birliklarining muloqot sharoitida qanday ishlatilishini , ya'ni so‘zlovchi va tinglovchi o‘rtasidagi nutqiy munosabatlarni o‘rganadi.

Pragmalingvistikaning zamonaviy tilshunoslikda tilni faol muloqot vositasi sifatida talqin qilishga asos yaratdi.

Zamonaviy lingvistik tahlil usullari tilga statik tizim emas , balki dinamik , kontekstual va kognitiv faoliyat sifatida yondoshadi. Bu usullar tilshunoslik fanini zamonaviy real hayot bilan yaqinlashtiradi va tilni chuqur, har tomonlama tahlil qilish imkonini beradi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zarif Aliqulov , Saodat Boymirzayeva "Sotsiolingvistika " Samarqand-2009.
2. A.Mamatov "Zamonaviy lingvistika" darslik Toshkent: "Tafakkur avlodi" 2020.
3. Mukhtarova, M. S., Namozova, S. B., & Mardonova, L. U. (2023). A Lyrical View of History. *Journal of Law and Sustainable Development*, *11*(12), e2676.
4. Saidmuradova, S., & Madina, T. L. (2024). ALISHER NAVOIY SHE'RIYATI POETIKASI. *PEDAGOGS*, *57*(1), 147-152.
5. Xurramovna, Q. G., & Donaboyevna, S. M. (2025, November). " Layli va Majnun" dostonida onomastik birliklar. In *INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY* (Vol. 2, No. 5, pp. 157-158).
6. Komilovna M. S. Hydronims Formed by the Method of Syntactic and Transonimization //World Bulletin of Social Sciences. – T. 37. – C. 16-18.
7. Dilshoda, A., Dilfuza, T., Muxlisa, M., & Dildora, A. (2025). MAXTUMQULI SHE'RIYATIDA HAYOTIYLIK. SHOKH LIBRARY, 1(11).
8. Abdurashidovich M. A. LINGUISTIC APPROACH TO NESTED DICTIONARIES AND THEIR HISTORICAL DEVELOPMENT //Multidisciplinary and Multidimensional Journal. – 2024. – T. 3. – №. 5. – C. 144-147.

9. Farida, X., To'xtayeva, D., Murtazayeva, M., & Abdurahmonova, D. (2025). "LISON UT-TAYR" DOSTONINING BOBLAR BO 'YICHA TASNIFI. *PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI*, *17*(02), 117-121.
10. Najibullo, S., & Manzura, B. (2024). IMPORTANCE OF DIALECTS IN PLACE NAMES [J]. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, *11*(02).
11. Raimnazarova Nasiba Xoliyarovna, Abduhakimova Shahlo Shuxratjon qizi. (2026). INGLIZ TILI SINFLARIDA O'QITUVCHI VA O'QUVCHI O'ZARO HAMKORLIGI NAZARLARI: DUXTAT TAHLILI. *Efiopiya xalqaro ko'p tarmoqli tadqiqotlar jurnali* , *13* (03), 1266–1270.
12. Iboralarni uslublarga ajratish mezonlari: nazariy va amaliy yondashuv (frazeologik birliklar stilistik tahlili asosida). (2025). *INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY*, *2*(6), 12-16.
13. Zafariddin, Temirov, and Xujanova Nasiba. "The Triumph of Light Over Darkness." *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, vol. 33, 20 Feb. 2025, pp. 34-37.
14. Sayfullayev, N. (2023). TERMS ARE AN INDIVIDUABLE WEALTH OF OUR LANGUAGE. *Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research*, *10*(10), 168-170.
15. Zebiniso, T. (2022). SIFAT SOZ TURKUMINING USLUBIY XUSUSIYATLARI. *Scientific Impulse*, *1*(4), 34-37.
16. Nodira Hamidova. (2024). G'AFUR G'ULOM HIKOYALARIDA SO'Z IJODKORLIGINING LISONIY-KOGNITIV TAHLILI. *PEDAGOGS*, *57*(1), 139–142.